

01/20-120-son
2026-yil 10-iyul



"TASDIQLAYMAN"

**O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vaziri – Xavflarni
boshqarish qo'mitasi raisi**

I. Abduraxmonov

" 10 " -iyul 2026-yil

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining Xavflarni
boshqarish qo'mitasi yig'ilishi
BAYoNI 20-120-son**

2026-yil "___"-iyul

Qibray tumani

- Raislik qiluvchi:** – B.Oxunov – Xavflarni boshqarish qo'mitasi (Qo'mita) raisi o'rinbosari
- Ishtirok etdilar:** – Qo'mita a'zolari, kotib, vazirlik tarkibiy bo'linmalari va tizim tashkilotlaridan taklif etilgan mutaxassislar

KUN TARTIBI:

Vazirlik tarkibiy bo'linmalarining faoliyati va maqsadli ko'rsatkichlar (indikatorlar)ga erishish bilan bog'liq aniqlangan moliyaviy va boshqa xavflar va ularni bartaraf etish choralari to'g'risida.

(Oxunov, Qulmirzaev, Pardaev, Burxanov, Teshabaev, Ashurov, ... Oxunov)

Qo'mita raisi o'rinbosari B.Oxunov yig'ilishni ochib, global beqarorlik sharoitida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishda xavflarni barvaqt aniqlash, baholash, ularni boshqarish hamda xavflar ta'sirini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Shuningdek, xavflarni boshqarish jarayoni bir martalik tadbir emasligi, balki har bir tarkibiy bo'linma va tizim tashkiloti tomonidan o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha doimiy ravishda amalga oshirilishi lozimligi qayd etildi.

Yig'ilish raisi kun tartibidagi masala yuzasidan axborot berish uchun so'zni Qo'mita kotibi N.Toshmatovga berdi.

Qo'mita kotibi N.Toshmatov so'zga chiqib, Xavflarni boshqarish qo'mitasining avvalgi yig'ilish bayonlari bilan xavflar reestri hamda xavflarni kamaytirish, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanganligini ma'lum qildi.

Xususan, Xavflarni boshqarish qo'mitasining 2026-yil 19-yanvardagi 01/20-5-son va 2026-yil 30-apreldagi 01/20-2-77-son yig'ilish bayonlari bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasida xavflarni kamaytirishga qaratilgan aniq choralar, ularni amalga oshirish mexanizmlari, bajarish muddatlari hamda mas'ul bo'linmalar belgilanganligi qayd etildi.

Mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosi o'rganilganda, 2026-yil 1-iyulga qadar muddati belgilangan bandlar bo'yicha mas'ullar tomonidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi ma'lum qilindi.

Jumladan:

kredit-modul tizimida xatolar xavfini kamaytirish bo'yicha reyting jarayonini avtomatlashtirish, xatoga yo'l qo'ygan bo'linmalar uchun javobgarlik mexanizmlarini belgilash yuzasidan choralar ko'rilgan;

ta'lim sifati pasayishi xavfini kamaytirish maqsadida o'quv reja va fan dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan;

ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish bo'yicha KPI asosida baholash va amaliyotga yo'naltirilgan tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilgan;

talabalar turar joyida sanitar holat buzilishining oldini olish bo'yicha sanitar monitoring, tushuntirish va tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilgan;

talabalarni qabul qilish buyruqlarini rasmiylashtirish jarayonida vazifa va vakolatlarni aniq taqsimlash, nazorat va ijro intizomini kuchaytirish bo'yicha choralar amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, chora-tadbirlar rejasida 2026-yil 1-sentabr, 1-oktabr va 1-dekabr muddatlari belgilangan bandlar ijrosi muddati kelmaganligi sababli nazoratda saqlanayotganligi ta'kidlandi.

Qo'mita kotibi so'zini davom ettirib, chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha muddati kelgan bandlar asosan ta'minlangan bo'lsa-da, tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari tomonidan o'z faoliyat yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha xavflar aniqlanib, Qo'mita ishchi organiga kiritilmaganligini ma'lum qildi.

Bu holat xavflarni boshqarish jarayoni ayrim tarkibiy bo'linmalarda faol va tashabbuskor tarzda yo'lga qo'yilmaganini, xavflarni aniqlash ishlari asosan topshiriq asosida amalga oshirilayotganini ko'rsatishi ta'kidlandi.

Shuningdek, tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari rahbarlarining KPI ko'rsatkichlariga xavflarni boshqarish jarayonining tashkil etilishi, ijrosi va natijadorligini baholovchi ko'rsatkichlar hozirgi kunga qadar kiritilmagani qayd etildi.

Mazkur holat xavflarni o'z vaqtida aniqlash, ularni baholash, reestrni yangilab borish hamda xavflarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlashda tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Qo'mita ishchi organi — Ichki audit boshqarmasi boshlig'i F.Ashurov so'zga chiqib, xavflarni aniqlash, baholash, xavflar reestrini shakllantirish, xavflarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi loyihalarini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta'minlash vazirlikning asosiy faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarining vazifasi ekanligini ta'kidladi.

Ichki audit boshqarmasi esa Qo'mita ishchi organi sifatida tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlaridan kelib tushgan ma'lumotlarni umumlashtirishi, xavflarni boshqarish jarayonini o'rganishi va tahlil qilishi hamda natijasi bo'yicha Qo'mitaga axborot va takliflar kiritishi qayd etildi.

Shu munosabat bilan, tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari tomonidan qo'shimcha xavflar aniqlanmaganligi, xavflarni boshqarish jarayoniga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi hamda KPI ko'rsatkichlari yo'lga qo'yilmagani tanqidiy muhokama qilindi.

Yig'ilish ishtirokchilari kun tartibidagi masala yuzasidan fikr va takliflar bildirib, xavflarni boshqarish jarayonida tarkibiy bo'linmalarning mas'uliyatini oshirish, har chorakda sohaviy xavflarni qayta ko'rib chiqish, chora-tadbirlar rejasi ijrosini tizimli nazorat qilish hamda KPI ko'rsatkichlariga xavflarni boshqarish natijadorligini baholovchi mezonlarni kiritish lozimligini ta'kidladilar.

Kun tartibidagi masala bo'yicha bildirilgan fikr va takliflarni inobatga olib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Qo'mita ishchi organi — Ichki audit boshqarmasining Xavflarni boshqarish qo'mitasining avvalgi yig'ilish bayonlari bilan tasdiqlangan xavflarni kamaytirish, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan kiritgan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xavflarni boshqarish qo'mitasining 2026-yil 19-yanvardagi 01/20-5-son va 2026-yil 30-apreldagi 01/20-2-77-son yig'ilish bayonlari bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasida 2026-yil 1-iyulga qadar muddati belgilangan bandlar ijrosi mas'ul tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari tomonidan ta'minlanganligi inobatga olinsin.

3. Statistik tahlil va prognozlashtirish bo'limi manfaatdor tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda 2026-yil 1-avgustga qadar tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari rahbarlarining KPI ko'rsatkichlariga xavflarni boshqarish jarayoni natijadorligini baholovchi mezonlarni kiritish bo'yicha taklif kiritsin.

Yig'ilish kotibi

N. Toshmatov

(B O'xayirov)

(S. Yuldashev)

(A. A. A. A. A.)

(K. Yuldashev) (T. A. A. A. A.)

(A. Yuldashev)